







“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali nogironligi bor insonlarning xorijda o‘qishi


Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen El-yurt umidi jamg‘armasi orqali xorijda o‘qish haqida ma’lumot olasan.
	El-yurt umidi jamg‘armasini matn davomida qisqa qilib **jamg‘arma** deb yozamiz.
	El-yurt umidi jamg‘armasi Prezidentning 2018-yil 25-sentyabridagi 5545-sonli Farmoni bilan tashkil etilgan.
	Jamg‘armaning asosiy vazifasi ● bilimli insonlarni boshqa davlatlarda o‘qitish ● o‘qib kelgan insonlarning bilim va tajribalari orqali O‘zbekistonni rivojlantirish.[1]

	**O‘zbekistonda** Jamg‘arma **1 yilda 2 marta** stipendiya tanlovini e’lon qiladi.
	**Stipendiya** – bu boshqa davlatda o‘qish uchun jamg‘arma tomonidan to‘lab beriladigan to‘lov.
	Har bir stipendiya tanlovlari **hujjat topshirish** va **test sinovlari** bosqichlaridan iborat.
	Test sinovlari **bakalavr** bosqichi nomzodlari uchun: • **tahliliy fikrlash** • **mantiqiy fikrlash** bo‘yicha **15 ta savol**dan iborat.
	**Bakalavr –** bu universitetdagi 1, 2, 3, 4-kurs talabalarining darajasi.


	**Tahliliy fikrlash –** bu mustaqil fikrlash, ya’ni sening o‘z fikrlash qobiliyating.
	**Mantiqiy fikrlash –** bu aniq ma’lumotlar asosida fikrlash qobiliyati.
	Test sinovlari **magistratura** va **doktorantura** bosqichidagi nomzodlar uchun: ● **tahliliy fikrlash** ● **ilmiy tadqiqot olib borish** bo‘yicha 15 ta savoldan iborat bo‘ladi.
	Test sinovlari kompyuterda o‘tkaziladi. Sen natijalarni testni tugatishing bilan bilishing mumkin.
	Sen testdan o‘tish ballini to‘plasang **suhbatda** ishtirok etasan.



	**Suhbatda sendan:** ● sening fikrlashing ● O‘zbekistonning tarixi ● hozirgi davlat boshqaruvi ● O‘zbekistonda yashovchi insonlar hayotini qanchalik bilishing ● chet davlatda o‘qib kelganingdan keyin nimalar qilishing haqida so‘raladi.
	Suhbat har doim **o‘zbek tilida** o‘tkaziladi.
	Prezidentning 2021-yil 11-fevraldagi 6168-sonli farmoniga ko‘ra, yoshlar chet davlatda o‘qishi uchun stipendiyalar ajratiladi.
	Jamg‘arma senga stipendiya ajratishi uchun: ● Chet davlatda o‘qishga qabul qilinganligi haqida taklifnoma-xati ● Shartli qabul qilinganing haqida taklifnoma-xati ● Seni o‘qishga qabul qilgan joyda sen uchun barcha sharoitlar bo‘lishi kerak.



	Jamg‘arma tanlovlarida ishtirok etish uchun sen: • O‘zbekiston fuqarosi bo‘lishing • tanlagan yo‘nalishingda avval chet davlatda o‘qimagan bo‘lishing • bakalavrda o‘qish uchun 25 yoshdan katta bo‘lmasligiga • magistraturada o‘qish uchun 20 yoshdan kichik bo‘lmasligiga • doktoranturada o‘qish uchun 22 yoshdan kichik va 45 yoshdan katta bo‘lmasligiga kerak.
	Magistratura va doktoranturada o‘qish uchun **2 yil** va **undan ko‘p ishlagan** bo‘lishing kerak.
	**Ta’lim** va **ijtimoiy** sohalarda o‘qish uchun **ishlagan bo‘lishing shart emas.**
	Prezident qaroriga ko‘ra, sen jamg‘arma hisobidan chet davlatidagi universitetlarda, masofaviy kurslarda ham o‘qishing mumkin



	Sen Jamg‘armaga masofaviy hujjat topshirishda: ● Jamg‘arma rahbari nomiga ariza ● nogironlik hujjatingni qo‘shib topshirishing kerak.
	Tanlovga **hujjat topshirish vaqti** va **tartiblari** haqida ● Jamg‘armaning internet manzili (https://eyuf.uz/) ● telegram orqali bilishing mumkin (https://t.me/elyurtumidifoundation)
	Stipendiya tanlovi uchun hujjatlar 1 oy davomida topshiriladi.
	Sen hujjatlaringni https://admission.eyuf.uz/ internet sayti orqali topshirishing mumkin.
	Sen internet saytga joylashing kerak bo‘lgan hujjatlar: ● Jamg‘arma direktori nomiga ariza ● pasport ● chet davlatdagi universitetga o‘qishga qabul qilinganliging

	• yoki shartli qabul qilinganliging to‘g‘risidagi taklifnoma-xat • B2 darajasidan past bo‘lmagan til bilish sertifikati (Milliy sertifikat, IELTS, TOEFL va boshqalar) • chet davlatda o‘qishdan maqsading va olingan bilimlarni O‘zbekistonda qo‘llashing haqida insho joylashing kerak.
	Sen bakalavrga hujjat topshirsang: • maktab • kollej • litsey shulardan birini tugatganlik haqidagi hujjat nusxasini joylashing kerak.
	Sen magistraturaga hujjat topshirsang: • bakalavr diplomi • diplom ilovasini joylashing kerak.
	Sen doktoranturaga hujjat topshirsang: • magistratura diplomi • diplom ilovasi • 2 yil ishlaganligingni tasdiqlovchi hujjat nusxasini joylashing kerak.

	Sen doktoranturaga qo‘shimcha topshirishing kerak bo‘lgan hujjatlar: ● O‘zbekistonda va chet davlatdagi ilmiy jurnallarda chiqqan ilmiy maqolalaring ro‘yxati ● maqolalarning elektron ko‘rinishi ● ilmiy tadqiqotning maqsadi ● ilmiy tadqiqotning uslublari va natijalari ● tadqiqotni O‘zbekistonda qo‘llash haqidagi insho
	Senda universitetda o‘qish to‘lovi bo‘yicha chegirmalar bo‘lsa, buni tasdiqlovchi hujjatni ham joylashing kerak.
	**Elektron ko‘rinish –** bu barcha qog‘oz ko‘rinishidagi ● hujjat ● kitob ● jurnal va boshqalarning kompyuterdagi ko‘rinishi.
	**Ilmiy tadqiqot –** bu aniq bir mavzuda yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni.

	**Maqola –** bu istagan soha ma’lumotlari va jarayonlari o‘rganilib, qoidalarga amal qilgan holda yozilgan matn.
	Senda hujjatlarni internet orqali topshirishda muammolar bo‘lsa, Jamg‘arma xodimlaridan masofaviy yoki tashkilotga borib yordam olishing mumkin.
	**Masofaviy –** bu internet orqali, hech qayerga bormasdan bajariladigan jarayonlar.
	Jamg‘armaning stipendiya tanloviga **saralash** testi **Bilim va malakalarni baholash agentligi** tomonidan o‘tkaziladi.
	Testlarni saralash vaqtida Jamg‘arma nomzodlar orasida nogironligi bor insonlarni aniqlasa, ularga agentlik tomonidan kerakli sharoitlar yaratib beriladi.
	Sen saralash va test bosqichida eshitish yoki gapirishda qiynalsang, senga maxsus tarjimon beriladi.

	**Jamg‘arma stipendiyasi:** ● o‘qish shartnoma to‘lovi ● viza olish ● tibbiy sug‘urta ● yashash xarajatlari ● darsliklar ● ilmiy maqolalar chop etish ● O‘zbekistonga yiliga 1 marta kelib ketish xarajatlari uchun to‘lab beriladi.
	Stipendiya faqat aytib o‘tilgan xarajatlar uchun to‘lab beriladi.
	Sen bilan birga boradigan insonlar yoki oila a’zolaring uchun pul ajratilmaydi.
	Senga tibbiy sug‘urtadan boshqa tibbiy xarajatlar uchun pul ajratilmaydi.

	Bunday holatda Jamg‘arma Vasiylik kengashi bilan kelishib, tibbiy xarajatlar uchun pul ajratiladi.
	Jamg‘arma senga vazirlik va tashkilotlardan • kafolat xati olishing • to‘rt tomonlama shartnoma tuzishing • keyinchalik ishga joylashishing bo‘yicha yordam beradi.
	Sening hamrohing sen bilan yashashi va transport xarajatlari uchun pul ajratilmaydi.
	Bu vaziyatda universitet sen mustaqil o‘qishing uchun sharoit borligi haqida taklifnoma xatini Jamg‘armaga yuboradi.
	Jamg‘arma chet davlatdagi universitetdan sen mustaqil o‘qishing uchun sharoit yaratib berishni so‘rashi mumkin.

	Sen tanlov haqidagi barcha ma’lumotlarni El-yurt umidi jamg‘armasining www.eyuf.uz rasmiy internet saytidan bilishing mumkin.
	Sen uchun kerakli ma’lumotlar Jamg‘armaning onlayn hujjat topshirish http://admission.eyuf.uz bo‘limida aniq yozilgan.
	**Qo‘shimcha savollar uchun telefon raqamlar:** • (71) 203-14-41, • (71) 203-00-47, • (71) 203-00-48, • (71) 203-00-53. • Jamg‘arma Telegram boti: https://t.me/EYUF_Admission_2023bot • Elektron pochta manzili: info@eyuf.uz